

DAMINOV Baxromjon

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar
kafedrası katta o'qituvchisi*

KAMOLIDDINOVA Muqaddas

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Mumtoz sharq filologiyasi
4- kurs talabasi*

O'ZBEK VA ARAB TILSHUNOSLIGIDA O'TIMLILIK TUSHUNCHASI

ПОНЯТИЕ ПЕРЕХОДНОСТИ В УЗБЕКСКОЙ И АРАБСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

THE CONCEPT OF TRANSITIVITY IN UZBEK AND ARABIC LINGUISTICS

Annotatsiya: Arab tilshunosligida fe'l muhim hamda murakkab mavzulardan biridir. Mazkur maqolada arab tilshunosligining eng dolzarb mavzularidan biri bo'lgan fe'lning o'timlilik holati haqida so'z boradi. Maqola arab va o'zbek tilshunosligidagi o'timsiz va o'timli fe'llar to'g'risida kerakli ma'lumotlarni qamrab olgan. Fe'lning o'timlilik shakli arab tilshunoslari tomonidan batafsil o'rganib chiqilgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham ushbu mavzuga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada o'timli va o'timsiz fe'llarning ikki tildagi o'xshashlik va farqli jihatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'timli fe'l, o'timsiz fe'l, nisbat, fe'lning infinitiv shakli, hosila boblar.

Аннотация: В арабской лингвистике глагол одна из важных и сложных тем. В данной статье речь пойдет о переходном состоянии глагола-одной из самых актуальных тем арабской лингвистики. Статья содержит необходимую информацию о непереходных и переходных глаголах в арабской и узбекской лингвистике. Переходная форма глагола подробно изучена арабскими лингвистами. Также в узбекском языкознании этой теме уделяется особое внимание. В статье рассматриваются сходства и различия между переходными и непереходными глаголами в двух языках.

Ключевые слова: переходный глагол, непереходный глагол, соотношение, инфинитивная форма глагола, производные глаголы.

Annotation: In Arabic linguistics, the verb is one of the important and complex topics. This article will talk about the transitivity of the verb, which is one of the most relevant topics in Arabic linguistics. The article covered the necessary information on transitive and transitive verbs in Arabic and Uzbek linguistics. The transitive form of the verb has been studied in detail by Arabic linguists. Special attention is also paid to this topic in Uzbek linguistics. The article cites two linguistic similarities and fargical aspects of transitive and intransitive verbs.

Keywords: transitive verb, intransitive verb, proportion, infinitive form of verb, derived chapters.

KIRISH

O'zbek tilshunosligida fe'llarning o'timli va o'timsiz holatlari mavjud. Fe'ldan anglashilgan harakatning tushum kelishigi formasidagi ot bilan (yoki otlashgan so'z bilan) ifodalanagan predmetga o'tganligini bildiradigan fe'llar **o'timli fe'l** deyiladi, masalan: so'radi (kitobni so'radi, onasini so'radi); uxlatdi (bolasini uxlatdi.). Biron predmetga bevosita o'tmaydigan harakatni anglatadigan fe'llar **o'timsiz fe'l** sanaladi. Masalan: Otlar jon-jahdi bilan yugura ketdi. O'timli fe'l ba'zan chiqish va jo'nalish kelishigi formasida qo'llagan otlar bilan bog'lanib keladi, qiyoslang: oling (nonni oling, nondan oling); minmoq (otni minmoq, otga minmoq).

Fe'ldagi o'timli – o'timsizlik 2 usul bilan ifodalanadi:

1) *Leksik-semantik;*

2) *morfologik (affiksatsiya) usullari.*

Birinchi usulda fe'llar hech qanday shakl o'zgarishsiz (o'zak- negiz holatida) o'z leksik ma'nosiga ko'ra yo o'timli (m: och, ich, qo'y, so'ramoq, bo'yadi kabi), yo o'timsiz (m: uxla, semirmoq, og'ridi kabi) sanaladi.

Ikkinchi usulga ko'ra fe'l o'zak-negiziga qo'shilgan ayrim qo'shimchalar ya'ni nisbat qo'shimchalari fe'lning o'timli yoki o'timsiz ekanini belgilab beradi [2:193].

ASOSIY QISM

Fe'llarga nisbat qo'shimchalari qo'shilishi natijasida uning holati o'zgarishi kuzatiladi. Hozirgi o'zbek tilida fe'l nisbatining beshta

ko'inishi ajratiladi: aniq nisbat, o'zlik nisbati, orttirma nisbat, birgalik nisbati, majhul nisbat. Aniq nisbatda subyektga munosabat nol shakl orqali ifodalanadi. Bu nisbatdagi fe'l o'timli (oldi) yoki o'timsiz (uxladi) bo'lishi mumkin. O'zlik nisbati asosan (-i)n, ba'zan (-i)l ko'rsatkichi yordamida o'timli fe'ldan hosil bo'ladi. O'zlik nisbati shakli o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi. O'zlik nisbati shakli har qanday o'timli fe'ldan ham yasalavermaydi. Masalan, (o'qi), (hayda), (kes), (ek), (min), (tik), (sug'or) kabi fe'ldan o'zlik nisbati hosil qilinmaydi. Shuningdek, orttirma nisbatdagi o'timli fe'ldan ham o'zlik nisbati hosil qilinmaydi. Orttirma nisbat esa «subyekt-obyekt»dir. Orttirma nisbat shakli quyidagilar: (-dir (-tir)): (chizdir), (-gaz, -giz, -g'az, -g'iz, -kaz, -kiz, -qaz, -qiz): (ko'rgaz), (kirgiz), (turg'iz), (yutqiz), (o'tqaz), (ketkiz), (yurg'az); (-t) (ishlat): (-r) (bitir), (uchir), (pishir). Orttirma nisbatning vazifasi «harakat bajaruvchisini orttirish, jarayonga «ortiqcha» bajaruvchini kiritish va o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantirish». Majhul nisbat (-il) va (-in) shakllari yordamida hosil qilinadi: (yuvildi), (tozalandi), (aytildi), (gapirildi), (olindi) kabi. Majhul nisbat asosan o'timli (o'ralgan), (yig'ilgan), (sochilgan), (terilgan), qisman o'timsiz (bo'shatilgan), (tushilgan), (borilgan) fe'ldan hosil qilinadi. O'timsiz fe'ldan yasalganda egasiz gap (shaxssiz fe'l) hosil bo'ladi [2:196].

Arab tilshunosligida ham fe'llarning o'timsiz va o'timlilik holatlarini uchraydi. Ko'plab arab manbalarida bu mavzuga alohida to'xtalib o'tilgan. Xususan, Mustafo G'alayoniy "جامع الدروس العربية" asarida o'timli fe'lga shunday ta'rif beradi: Fe'l ma'no jihatdan ikkiga bo'linadi: *o'timli va o'timsiz fe'llar*. **O'timli fe'l** (الفعل المتعدي) bu- ish-harakatning bajaruvchi ega va to'ldiruvchini talab qiluvchi fe'ldir. Shuningdek, (الفعل الواقع) tushuvchi fe'l (ya'ni to'ldiruvchi bilan keladi) yoki (الفعل المجاوز) o'tuvchi fe'l (ya'ni egadan so'ng to'ldiruvchiga o'tadi) deb ham ataladi [6:34].

لَقَدْ خَلَقْنَا الْإِنْسَانَ فِي أَحْسَنِ تَقْوِيمٍ (سورة التين، 4)

«Haqiqatan, Biz insonni xushbichim va xushsurat shaklda yaratdik» [3:597]

Ushbu oyatda "yaratmoq" o'timli fe'l bo'lib, undan so'ng "inson" so'zi uning to'ldiruvchisi bo'lib kelmoqda.

O'timsiz fe'l (الفعل اللازم) - bu ish-harakatning bajaruvchisi bo'lgan ega bilan kelib, to'ldiruvchiga talab qilmaydigan fe'ldir. Shuningdek, (الفعل القاصر) ya'ni ega bilangina cheklanuvchi fe'l, yoki (الفعل غير الواقع) ya'ni to'ldiruvchiga tushmaydigan fe'l, (الفعل غير المجاوز) egadan to'ldiruvchiga o'tmaydigan fe'l ham deyiladi.

تَبَّتْ يَدَا أَبِي لَهَبٍ وَتَبَّ (سورة المسد، 1)

»Abu Laxabning qo'llari qurisib (halok bo'lsin). Halok bo'ldi ham» [3:603]

Ushbu oyatdagi (تَبَّ) so'zi "qurimoq" degan ma'noni anglatib, u o'timsiz fe'ldir. Shu sababli ham u ega bilangina cheklanmoqda.

إِذَا زُلْزِلَتِ الْأَرْضُ زِلْزَالَهَا (سورة الزلزلة، 1)

"Yer eng daxshatli zilziladan larzaga kelganda" [5:599]

Ushbu oyati karimada (زُلْزِلَ) fe'li "silkitmoq, titratmoq, tebratmoq" degan ma'nolarni anglatib, u o'timli fe'ldir. Ammo oyatda bu fe'l majhul holatda kelgan. Buning natijasida o'timlilik holatini yo'qotgan. Shu o'rinda aytish lozimki, o'timli fe'llar majhul daragaga o'tganda o'timsiz fe'lga aylanadi.

O'zbek tili grammatikasida nisbat qo'shimchalari yordamida fe'l o'timsiz holatdan o'timliga yoki o'timli holatdan o'timsizga o'tishi mumkin. Arab tilida o'zbek tilidan farqli o'laroq, fe'lning infinitiv shakli (mujarrad fe'l) hamda hosila boblar (mazid fe'l) dagi ma'lum bir shakllar faqat o'timsiz bo'lib kelishi yoki bir vaqtning o'zida ham o'timli ham o'timsiz bo'lib kelishi mumkin.

Sulosiy mujarraddagi beshinchi bob, ya'ni "فَعْلٌ" bobidagi fe'llari hammasi o'timsiz fe'l hisoblanadi. Bu fe'llar asosan insonning xususiyat va karakterini ifodalaydi. Masalan (حَسَنٌ) chiroyli, yaxshi bo'lmoq [6:46].

وَضَاقَتْ عَلَيْكُمُ الْأَرْضُ بِمَا رَحُبَتْ (التوبة، 2)

"Keng yer sizga torlik qilib qoldi" [3:190]

Ushbu oyatda ko'rish mumkinki, رَحُبَتْ fe'li o'timsiz fe'l bo'lib, oyatda hech qanday to'ldiruvchi bilan kelmagan. Chunki ushbu fe'l mujarraddagi "فَعْلٌ" vaznidagi fe'llar bo'lib, ular doimo o'timsizdir.

Sulosiy mujarraddagi "فَعْلٌ" vazni, ya'ni to'rtinchi bob fe'llari baxt va g'am-qayg'u ma'nolarini ifodalasa, bunday fe'llar o'timsiz bo'ladi. Shuningdek, (مَرَضٌ) vaznidagi (فَعِلٌ) kasal

bo'lmoq, (شبع) to'yingan bo'lmoq, (فرح) xursand bo'lmoq, (نشيط, chanqamoq, عطش) harakatchan bo'lmoq, (حزن) xafa bo'lmoq fe'llari ham o'timsiz fe'llardir [9:284].

لَا تَحْزَنْ إِنَّ اللَّهَ مَعَنَا (التوبة, 04)

“Tashvish chekma! Albatta, Alloh biz bilan” [3:193]

Ushbu oyatdagi (حزن) fe'li sulosiy mujarradning 4-bobiga tegishli fe'l bo'lib, u “فعل” vaznidadir. Shu sababli, u o'timsiz fe'l bo'lib, oyatda ham to'ldiruvchisi mavjud emas.

Agar fe'l sulosiy mujarradning birinchi bobi «فَعْلٌ-يَفْعُلُ» vaznidagi ikkilangan fe'l bo'lsa, ko'pincha bunday fe'l o'timli bo'ladi. Agar bunday ikkilangan fe'l sulosiy mujarradning ikkinchi bobiga «فَعْلٌ-يَفْعُلُ» vazniga to'g'ri kelsa, u ko'p hollarda o'timsiz bo'ladi [7:28].

فَذَلِكَ الَّذِي يَدُعُّ الْيَتِيمَ (سورة الماعون, 2)

“Bas, u yetimni jerkiydigan” [3:602]

Oyatda (دُع) fe'li sulosiy mujarradning birinchi bobidagi ikkilangan fe'l bo'lib, u o'timli fe'ldir. Oyatda ham “yetim” so'zi bu fe'lning to'ldiruvchisidir.

وَأَمَّا مَنْ خَفَّتْ مَوَازِينُهُ (سورة الفارعة, 8)

“Ammo kimning tarozida tortilgan narsalari (savob amallari) yengil kelsa” [3:600]

Ushbu oyatdagi (خفت) fe'li “yengil bo'lmoq” degan ma'noni berib, bu fe'l sulosiy mujarradning ikkinchi bobidagi, ya'ni “خفت-يخفُ” vaznidagi ikkilangan fe'ldir. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu vazndagi fe'llar ko'p holatlarda o'timsiz bo'lib keladi.

Shuningdek, Ne'matullo Ibrohimovning “Arab tili grammatikasi” kitobida fe'lning mazid shaklida doimo o'timsiz bo'lib keladigan vaznga to'xtalib o'tilgan. VII bob “انفعل” vaznidagi fe'l asosan I bobdagi “فعل” vaznidagi fe'lning o'timsiz, o'zlik-majhul nisbatini bildiradi. Shu sababli bu bob fe'llarining majhul nisbati ishlatilmaydi. Masalan, (كسر) sindirmoq-(انكسر) sinmoq [1:275].

فَأَنْبَجَسَتْ مِنْهُ إِثْنَتَا عَشْرَةَ عَيْنًا (الأعراف, 061)

“Undan ikki chashma otilib chiqdi” [5:171]

Oyatdagi (انجس) fe'li sulosiy mazidga tegishli bo'lib, o'zbek tilidagi 7-bob “انفعل” vazniga to'g'ri keladi. Ushbu fe'l (بجس) felidan olingan bo'lib “quymoq, to'kmoq” degan ma'noni beradi va bu

fe'l o'timlidir. Ammo “انفعل” vazniga o'tishi bilan bu fe'l o'timsiz fe'lga aylanmoqda.

إِذَا السَّمَاءُ انْفَطَرَتْ (سورة الانفطار, 1)

“Osmonlar yorilganda” [3:587]

Ushbu oyatdagi (انفطر) fe'li “انفعل” vaznidagi fe'l bo'lib, majhul nisbatda “yorilmoq” shaklida bo'lganligi sababli doimo o'timsizdir. Bu fe'l birinchi bobdagi (فطر) fe'lidan yasalgan bo'lib, “yormoq” ma'nosini anglatadi.

Demak, fe'llarning mujarrad (infinitiv) va mazid (hosila boblar) shaklidagi muayyan bir vanzlar doimo o'timsiz fe'l bo'lib kelmoqda. Arab tilida o'timsiz fe'lga ma'lum bir qo'shimcha qo'shilishi natijasida fe'l o'timliga aylanish holatlari mavjud. Mustafu G'alayoniy o'z asarida fe'lning o'timsizdan o'timliga aylanishida uch holatni sanab o'tgan [6:48].

Quyidagi uch holatda fe'l o'timsiz holatdan o'timliga aylanadi:

1. Uch undoshli o'timsiz fe'l sulosiy maziddagi (فعل) vazniga o'tganida o'timli fe'lga aylanadi.

وَأَنَّهُ هُوَ أَضْحَكَ وَأَبْكَى (النجم, 34)

“Kuldiradigan ham, yig'latadigan ham u zotning o'zi” [5:527]

Ma'lumki, kulmoq (ضحك) va yig'lamoq (بكى) fe'llari o'timsiz fe'llardir. Oyatdagi ushbu fe'llar to'rtinchi bob “أفعل” vazniga (sulosiy mazid) o'tishi bilan kuldirmoq (أضحك), yig'latmoq (أبكى) ma'nolariga ega bo'lmoqda. Ya'ni, fe'lga o'timli qiluvchi hamza qo'shilishi natijasida o'timsiz fe'l o'timli fe'lga aylanmoqda.

2. Uch undoshli o'timsiz fe'l sulosiy maziddagi (فعل) vaznida bo'lsa, o'timli fe'lga aylanadi.

يَا زَكَرِيَّا إِنَّا نُبَشِّرُكَ بِغُلَامٍ اسْمُهُ يَحْيَى (سورة مريم, 7)

“Ey Zakariyo, Biz senga ismi Yahyo bo'lgan bir o'g'ilning xushxabarini beramiz” [5:305]

“بَشِّرَ” fe'li birinchi bobdagi fe'l bo'lib, “xursand bo'lmoq” ma'nosini anglatadi. Bu fe'l uchinchi bobga o'tganida “بَشَّرَ” fe'li yasalmogda. Ushbu fe'l “yoqimli xabar bilan xushnud qilmoq” ma'nosini anglatadi. Oyatdagi “الكاف” birikma olmoshi uning to'ldiruvchisi bo'lib kelayotganidan bu fe'lning o'timli ekanligiga amin bo'lish mumkin.

3. O'timsiz fe'l old ko'makchilar (حروف الجر) bilan kelganida o'timli fe'lga aylanadi.

فَأَنْتَ عَنْهُ تَلَهَّى (سورة عبس, 01)

“Bas, Siz undan chalg‘ib- yuz o‘g‘irib olmoqdasiz” [3:585]

Ushbu oyatda kelgan (تَلَّهَى) fe‘li o‘timsiz fe‘ldir. Chunki “unga” birikma olmoshi fe‘lga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilmay, old ko‘makchiga qo‘shilib, vositali to‘ldiruvchiga aylanmoqda. Buning natijasida fe‘l o‘timliga aylanmoqda.

Shuningdek, birinchi bobda o‘timli bo‘lgan fe‘llar ikkinchi “فَعْلٌ” va to‘rtinchi bob “أَفْعَلٌ” vaznlariga o‘tganida, bu fe‘llarning orttirma nisbati hosil bo‘ladi [1:205].

فَأَذَقَهَا اللَّهُ لِبَاسَ الْجُوعِ وَالْخَوْفِ (النحل 211)

“Alloh unga ochlik va xavf libosi (balosi) ni totishga majbur etdi” [3:280]

(ذاق) fe‘li “tatib ko‘rmoq” degan ma‘noni anglatib, o‘timli fe‘ldir. Unga hamza qo‘shilishi bilan orttirma nisbatdagi fe‘lga o‘zgarmoqda. ((أَذَقَ)) tattirib ko‘rmoq, totishga majbur qilmoq fe‘li yasalmog‘da.

“فاعل” vaznidagi fe‘l ham ba‘zan o‘timli bo‘lib, o‘zidan keyingi so‘zni nasb qilib keladi. Ne‘matullo Ibrohimov bu vazndagi fe‘lga shunday ta‘rif beradi:

“III bob fe‘lining ma‘nolaridan biri ikki shaxs tomonidan birgalikda bajarilgan ish-harakatni bildiradi. Agar bu ma‘noda ishlatilsa, ish-harakatni bajarishda ishtirok etgan ikkinchi shaxs old ko‘makchisiz tushum kelishigida keladi” [1:229].

أَمْسَ جَالِسْتُ مُحَمَّدًا

Kecha men Mahmud bilan birga o‘tirdim

Nahuvshunos olimlarning fikriga ko‘ra o‘timli va o‘timsiz fe‘llar vazni hamda belgilariga ko‘ra ikki guruhga tasniflanadi: o‘timli va o‘timsiz fe‘llar orasidagi umumiy vaznlar, faqatgina o‘timsiz fe‘lga xos bo‘lgan vaznlar [8:14,17].

1.O‘timli va o‘timsiz fellar orasidagi umumiy fe‘llar (أَبْنِيَّةٌ مُشْتَرَكَةٌ بَيْنَ الْمُتَعَدِّي وَالْإِذَازِمِ)

ذكر سيويه أن للمجرد أربعة أوزان: ثلاثة منها مشتركة بين

المتعدي والإِذَازِمِ و هي

فَعْلٌ (يفعل) ضرب، جلس

فَعِلٌ (يفعل) قتل، قعد

فَعِلٌ (يفعل) لقم، ركن

Sibaveyhi sulosiy mujarradga doir 4 ta vaznni aytib o‘tgan bo‘lib, ularning 3 tasi ham o‘timli, ham o‘timsiz bo‘ladigan fe‘llardir.

1. Susoliy mujarrad II bobdagi fe‘llar: urmoq, o‘tirmoq

2. Sulosiy mujarrad I bobdagi fe‘llar: o‘ldirmoq, o‘tirmoq

3. Sulosiy mujarrad IV bobdagi fe‘llar: ovlamoq, moyil bo‘lmoq

أما المزيد فأبْنِيَّةُ الْمُشْتَرَكَةِ هِيَ:

1. أَفْعَلٌ : المتعدي (أكرم) والإِذَازِمِ (أبطأ)

2. فَعْلٌ : المتعدي (كسر) والإِذَازِمِ (سَبَح)

3. فاعل : المتعدي (ضارب) والإِذَازِمِ (سافر)

4. تَفَعَّلَ : المتعدي (تَلَقَّفَ) والإِذَازِمِ (تَأَثَّم)

5. تَفَاعَلَ : المتعدي (تَقاضَى) والإِذَازِمِ (تَغافل)

6. افْتَعَلَ : المتعدي (اكتسب) والإِذَازِمِ (افتقر)

7. اسْتَفْعَلَ : المتعدي (استحسن) والإِذَازِمِ (استأسد)

Sulosiy maziddagi umumiy fe‘llar:

1. أَفْعَلٌ) vaznidagi fe‘llar: hurmat qilmoq (o‘timli), sustkashtlik qilmoq (o‘timsiz fe‘l)

2. فَعْلٌ) vaznidagi fe‘llar: sindirmoq (o‘timli fe‘l), hamd aytmoq (o‘timsiz fe‘l)

3. فاعل) vaznidagi fe‘llar: bosmoq (o‘timli fe‘l), safar qilmoq (o‘timsiz fe‘l)

4. تَفَعَّلَ) vaznidagi fe‘llar: ushlab olmoq (o‘timli fe‘l), pushaymon bo‘lmoq (o‘timsiz fe‘l)

5. تَفَاعَلَ) vaznidagi fe‘llar: murajaat qilmoq (o‘timli fe‘l), e‘tiborsiz bo‘lmoq (o‘timsiz fe‘l)

6. افْتَعَلَ) vaznidagi fe‘llar: egallamoq (o‘timli fe‘l), qashshoqlikda yashamoq (o‘timsiz fe‘l)

7. اسْتَفْعَلَ) vaznidagi fe‘llar: ma‘qullamoq (o‘timli fe‘l), kuchli bo‘lmoq (o‘timsiz fe‘l).

2. O‘timsiz fe‘l uchun xos bo‘lgan vaznlar (أَبْنِيَّةٌ خَاصَةٌ بِالْإِذَازِمِ)

فَعْلٌ (يفعل) هذا البناء في المجرد خاصة بالإِذَازِمِ مثل كَرُمَ

أما في المزيد الأَبْنِيَّةُ الْخَاصَةُ بِالْإِذَازِمِ: انْفَعَلَ (انكمش)، اِفْعَلَ (احمر)

Sulosiy mujarradda faqat o‘timsiz bo‘lib keladigan fe‘l (فَعْلٌ) vaznidir. Ammo mazidda esa quyidagi fe‘llar doimo o‘timsiz bo‘lib keladi:

1. انْفَعَلَ) vaznidagi fe‘llar: qisqarmoq

2. اِفْعَلَ) vaznidagi fe‘llar: qizarmoq

XULOSA

Ushbu maqolada o‘zbek va arab tilshunosligida fe‘lning o‘timsiz va o‘timli holatlarini imkon qadar ochib berishga harakat qildik. Demak, ikkala til grammatikasida ham fe‘l ma‘no jihatdan o‘timli va o‘timsizga bo‘linmoqda. Ammo bu tillar grammatikasida fe‘lni o‘timsiz holatdan o‘timliga o‘tishi turlicha ekanligiga guvoh bo‘ldik. Ushbu

mavzu bo'yicha maqola quyidagi xulosalarni o'z ichiga oladi:

– O'zbek tilida fe'lning infinitiv shakli ham o'timsiz, ham o'timli bo'lib, fe'lga nisbat qo'shimchasi qo'shilishi natijasida uning holati o'zgaradi.

– Arab tili grammatikasida esa fe'lning infinitiv shaklidagi ba'zi bir vaznlar doimo o'timsiz holatda kelishi mumkin.

– Ikkala til grammatikasida ham fe'lga ma'lum bir qo'shimchalarning qo'shilishi natijasida o'timsiz fe'l o'timliga aylanmoqda.

– O'timli bo'lgan fe'lga qo'shimcha qo'shilishi natijasida uning orttirma nisbati yasalmogda. Bu holatni ikkala tilda ham uchratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI:

1. Ibrohimov N., Yusupov M., Arab tili grammatikasi. – Namangan: Namangan. 2009.– 453 b.
2. Sayfullayeva R. R., Mengliyev B. R., Boqayeva G. H., Qurbonova M. M., Yunusova Z. Q., Abuzalova M. Q., Hozirgi o'zbek adabiy tili o'quv qo'llanma. – T: Fan va texnologiya, 2009. – 236 b.
3. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Munir, 2021. – 618 b.
4. Shayx Alouddin Mansur. Qur'oni azim muxtasar tarixi. – Toshkent: Munir, 2022. – 604 b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni karim mazmun-ma'nosining o'zbekcha izohli tarjimasi. – T.: Hilol Nashr, 2022. – 1022 b.
6. الشيخ مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. - بيروت: صيداء
7. علي الجارم و مصطفى أمين. النحو الواضح-دمشق: دار المقاطي 2020
8. أبو أوس إبراهيم الشمس. قضايا المتعدي و اللزوم في الدرس النحوي. القاهرة: دار المنكر
9. محمد صالح مصطفى طومر. حنفي ناصف. الدروس النحوية. دمشق: دار القحاء, 2006, الجزء الرابع
10. خالد عبد العزيز. النحو التطبيقي-القاهرة: دار الؤلؤة, 2018.
11. ابن السراج. تحقيق الدكتور عبد الحسين الفتلي. الأصول في النحو. الجزء الثالث. – بيروت. مؤسسة الرسالة
12. حسن عباس. النحو الوافي. القاهرة: دار المعارف
13. Abdujabbarov A. Arab tili. – Toshkent: Toshkent islom universiteti. 2005. – 311 b.
14. Amonov U. Ona tili. Morfologiya. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Durdona, 2021. – 324 b
15. Hasanov M. Arab tili darslari. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2016- 360 b
16. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili.- Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 213 b.